

**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASHDA ILG'OR XORIJIY
METODIKALAR**

Jizzax davlat Pedagogika universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti

Maktab menejmenti yo'naliши talabalari

Oltinboyeva Mashhura

Berdiyev Jahongir

Anotatsiya: Maqolada ta'lism sifatini ta'minlashda ilg'or xorijiy metodikalar yoritib berilgan. Ushbu maqola orqali biz ilg'or xorijiy metodikalar shu jumladan AQSH, Finlandiya ta'lism tizimini o'rganishimiz va ularni bazilarini davlatimizda qo'llashimiz mumkin.

Abstract: The article highlights advanced foreign methods for ensuring the quality of education. Through this article, we can study advanced foreign methods, including the educational system of the USA and Finland, and apply some of them in our country.

Аннотация: В статье освещены передовые зарубежные методы обеспечения качества образования. Благодаря этой статье мы сможем изучить передовые зарубежные методы, в том числе образовательную систему США и Финляндии, и применить некоторые из них в нашей стране.

Kalit so'zlar: Ta'lism, sifat, o'qituvchilar, o'quvchilar, ta'lism sifati, metodika, Finlandiya, Amerika, Yaponiya, xorijiy metodikalar.

Key Words: Education, quality, teachers, students, quality of education, methodology, Finland, America, Japan, foreign methodologies.

Ключевые слова: Образование, качество, преподаватели, студенты, качество образования, методика, Финляндия, Америка, Япония, зарубежные методики.

Ta'lism sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilg'or metodikalarni o'rganish , xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga

ega. Bu borada O'zbekiston Respublikasida qo'yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to'g'risida hukumat qarorining qabul qilinishi Ta'lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishini misol sifatida keltirish mumkin. O'quvchilarning axborotni mustaqil topish, qayta ishlash, xulosa chiqarishga o'rgatish orqali intellektual salohiyatini oshirish maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan foydalanish tavsiya etiladi. AKT o'quv mashg'ulotlarida musiqa, animatsiya yordamida estetik va emotsional muhit yaratish, ko'rgazmaling rang-barangligini ta'minlash, yirik miqdordagi didaktik materiallarni qamrab olish, keng hajmdagi mashqlarni bajarish, o'quvchilar bilan individual ishlash imkonini beradi. Natijada sinfda do'stona va hamkorlik muhiti vujudga kelib, o'g'il-qizlarning o'qish va o'rganish faoliyati jadallahadi.

Xorijiy metodikalarni o'rganish orqali biz o'z ta'lim tizimimizga yangiliklar kiritishimiz va eski ta'limiy metodikalardan voz kechib yangilariga o'tishimiz mumkun bo'ladi. Bunday o'zgarishlar esa ta'lim tizimi samaradorligini oshirmsandan qo'ymaydi albatta.

Metodika tushunchasi yurtimizda ilmiy doirada keng qöllanib kelinadi. Bundan tashqari u bilan yonma-yon usul, uslub kabi özbekcha muqobillari ham ishlatiladi. Bizning nazаримизда ilmiy doirada xalqaro söз болган METODIKA atamasi qöllangani maqsadga muvofiq. Shu nuqtai nazardan qarashlarimizda metodika sözidan foydalanamiz.

Metodika tushunchasini örganishdan avval uning negizini tahlil qilib körsak. Metod özi nima?

Metod bu biror maqsadni amalga oshirish uchun foydalaniladigan yўl, usuldir. Aslida, kundalik hayotimizda har sohada, har soniyada undan foydalanamiz. Asosiy maqsadning kichik qismlari ham borki, yuqoridaq misolda körishimiz mumkin. Ishga tezroq borishimiz zarurmi, yўl haqi qimmatga tushmasligi kerakmi yoki bosib ötilajak yўl salomatligimiz uchun foydali

bölsinmi? Demak, maqsadga köra eng kerakli va tög'ri usulni tanlayshimiz lozim böladи.

Xorijiy metodikalar yani xorijiy davlatlarning ta'lif berish usullarini o'rganishda biz ularning ta'lif jarayonidagi barcha bajarayotgan ishlarini o'rganishimiz kerak bo'ladi. Nimagaki o'quvchilarning maktabga borish yoshidan tortib qanday fanlar o'tilishi va boshqa jarayonlar har bir davlatda farq qiladi. Bu esa o'sha davlatning ta'lif metodikasi (usuli) hisoblanadi.

Endi ilg'or xorijiy metodikalar bilan birma bir tanishsak.

Amerikada ta'lif jarayonida bir nechta xorijiy metodikalar amalga oshiriladi. Bu metodikalar o'quvchilarning kiritilgan bilimlarni tushunish, tahlil qilish va ularning o'z fikrlarini ifoda qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan.

1. Aktiv ta'lif: Bu metodika o'quvchilar faoliyatlariga amal qiladi va ularning ish bilan boshqarish, muammoni yechish, taklif va maslahat berish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. O'quvchi o'zini ishga soladi va o'tgan bilimlarini yangi vazifalarga qo'llash orqali mustahkamlashni o'rganadi.

2. Mahalliy ta'lif: Bu metodika o'quvchilarning joylashgan hudud yoki mamlakat xususiyatlari va tarixi bilan bog'liq ma'lumotlarni tushunishi uchun ishlatiladi. Mahalliy tarix, mavjud resurslardan foydalanish (muzeylar, toshkentlar, arxeologik joylar), mahalliy madaniyotni tanishuv, ko'maklashuv va yozma-kutubxonalardan foydalanib tahqiqot ishlari amalga oshirilib boriladi.

3. Kooperativ ta'lif: Bu usulda guruh ishi, hamkorlik va o'zaro takliflash muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar qo'shimcha bilim olish uchun guruhda ishlaydilar va bir-biriga yordam beradilar. Bu usul o'quvchi jismoniy, ma'rifiy va ijtimoiy ko'maklashishni rivojlantiradi.

4. Texnologik ta'lif: Amerikada texnologiya keng qo'llanilishi ta'lif jarayonida juda muhim ahamiyatga ega. Kompyuterlar, planshetlar, internet va boshqa texnologik vositalar o'quvchilarning bilimlarni tushunish va o'rganish jarayonini yanada soddallashtiradi.

5. Ta'til ta'lif: Ta'til dasturlari talabalarni o'rganishning zamонавий

usullaridan biridir. Darslikdan tashqari kasbdoshlar va sport mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning kreativliklarini rivojlantiradi.

Bu metodikalar Amerika ta'limga xos bo'lmasa-da, bu mamlakatda amal qilingan metodikalardan faqat ba'zilari hisoblanadi. Boshqa xorijiy metodikalar ham mavjud bo'ladi va ular bilan birlashtirilishi Amerika ta'limga xos usullar yaratilishi mumkin.

Qo'shma Shtatlardagi ta'lim ta'limning alohida bosqichlaridan iborat — maktabgacha, boshlang'ich, o'rtalikli va oliy. Uch darajada nazorat qilinadi va moliyalashtiriladi: federal, shtat va mahalliy hukumatlar.

AQShning barcha shtatlarida shtatga qarab besh yoki sakkiz yoshdan o'n olti yoki o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan bolalar uchun majburiy ta'lim qonunlari mavjud. Ta'lim dasturi shtatdan shtatga va maktab okrugiga qarab farq qilishi mumkin, ammo barcha shtatlar qonun bo'yicha davlat maktablari o'quvchilarini kerakli minimal ta'lim darajasiga erishishlarini tekshirishlari kerak.

Oliy o'quv yurtlari ta'lim sifati jihatidan juda farq qiladi. Ayvi Ligasining 8 ta universitetlari AQShda ham, butun dunyoda ham eng nufuzli universitetlardan biri hisoblanadi.

Qo'shma Shtatlar 2010-yil holatiga ko'ra kollejda ta'lim olgan kattalar ulushi bo'yicha sanoati rivojlangan davlatlar orasida 10-o'rinni egallaydi.

AQShda savodxonlik darajasi 99 % (2008), 2011-yilda 25 va undan katta yoshdagilarning 46 % o'rtalik ma'lumotga ega, 30 % bakalavr darajasiga ega. Ta'limning asosiy tili ingliz tilidir.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida Finlyandiya tajribasini qo'llash yuzasidan keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Xo'sh, ushbu davlat ta'lim tizimining o'ziga xosligi nimada? Finlyandiya ta'lim tizimi bunday muvaffaqiyatga qanday erishdi? E'tiboringizga Finlyandiya ta'lim tizimining o'ziga xos 10 jihatini keltirib o'tamiz:

1. Finlyandiya bolalari ta'limdi boshqa mamlakatlarnikiga nisbatan kechroq boshlaydi. Ular 7 yoshdan boshlab maktabga qabul qilinadi. «Bolalarni haddan ziyod erta maktabga berish ilmiy jihatdan foydali emasligi tasdiqlangan», deyiladi fin tizimida.
2. Finlyandiyada majburiy ta'lim 9 yil davom etadi, o'quvchilar 16 yoshdan o'qishni tark etishi mumkin. Ushbu g'oya Finlyandiya talabalarini haqiqiy hayotga tayyorlashga qaratilgan.
3. Finlyandiya talabalari rivojlangan mamlakatlar ichida eng kam dars soatlarini o'qiydi (darslar 8-9 oralig'ida boshlanib, kunduzgi 2 gacha yakunlanadi), shunga qaramay juda yaxshi natijalar qayd etadi.
4. Finlyandiyadagi maktablar hech qanday tartibda joylashmagan, maktablar, mintaqalar, o'qituvchilar va hatto talabalar o'rtasida taqqoslashlar mavjud emas. Ular raqobat emas, aynan hamkorlik muvaffaqiyat kaliti, deb hisoblashadi.
5. Fin o'qituvchilari dunyodagi eng malakali mutaxassislardir. Finlyandiyada o'qituvchilikka bo'lgan talablar juda yuqori. O'qituvchilari xuddi shifokorlar va yuristlar kabi maqomga ega. Ularning ijtimoiy mavqeい ham juda yuqori. Fin o'qituvchilarining bu qadar ulkan mavqega egaliklari o'qituvchi kasbiga bo'lgan talabning yuqoriligi hamda malaka imtihonlarining murakkabligi bilan izohlanadi. Shuning uchun Finlyandiyada ular o'z o'qituvchilarini doimiy ravishda baholash va baholab borish zaruratini sezmaydi. Agar o'qituvchidan qandaydir xato yoki kamchilik o'tadigan bo'lsa, u bilan maktab direktorining o'zi shug'ullanib qo'ya qoladi.
6. Finlyandiyada xususiy maktablar mavjud emas. Fin maktablari o'rtasida raqobat yo'qligining sabablaridan biri shundaki, barcha maktablar davlat mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Shu bois qayerdadir yaxshi, qayerdadir sustroq ta'lim berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

7. Finlyandiya talabalari ko'proq tillarni o'rganishadi. Ular fin tilini maktabdagi birinchi kunidan o'rganadi. 9 yoshida ular shved tilini o'rganishni boshlaydi. 11 yoshida ular uchinchi tilni (odatda ingliz tilini) o'rganishga rag'batlantiriladi. Ko'plab o'quvchilar 13 yoshida to'rtinchi tilni o'rganayotgan bo'ladi.

8. Finlyandiya maktablari barcha o'quvchilarining tushligi davlat tomonidan qoplab beriladi. 1943 yildan buyon mazkur amaliyotga amal qilib kelinmoqda.

9. O'qituvchilar odatda kuniga 4 soatdan mashg'ulot o'tkazadi va har hafta ularga kasbiy rivojlanish uchun 2 soat vaqt ajratiladi. Bu esa, o'z navbatida, muallimlarga tushadigan stressni kamaytiradi.

10. Finlyandiya milliy o'quv dasturi keng qo'llanma bo'lib, o'qituvchilarga o'z uslubi va fikrlarini sinfda ishlatishiga imkon beradi. Bu Finlyandiya ta'lim tizimining o'z o'qituvchilariga bo'lgan ishonchiga asoslanadi.

Ta'kidlash joizki, Ta'lim inspeksiyasi tomonidan barcha ta'lim vazirliklari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan "Uzluksiz ta'lim" konsepsiyalari loyihasida ko'plab mamlakatlar qatorida Finlyandiya tajribasidan ham foydalanish maqsad qilib olingan.

Finlyandiya ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlari haqida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi boshlig'i Ulug'bek Tashkenbayev quyidagilarni bayon qildi:

– Finlyandiya ushbu xalqaro miqyosdagi baholashda o'z muvaffaqiyatlari bilan ajralib turadi. PISA dasturi 2000 yilda tashkil etilgandan buyon Finlyandiya unda muntazam qatnashib kelmoqda va erishgan natijalari bilan fin ta'lim tizimi dunyodagi ko'plab mamlakatlarining e'tiborini o'ziga jalb qilmoqda.

Xo'sh, bunday natijalarga finlar qanday qilib erishmoqda?

Ularning ta'lismi tizimini o'rganishlar shuni ko'rsatmoqdaki, Finlyandiya maktabalarining o'quv dasturlari bolalarga berilayotgan har qanday bilimlarni amaliyotga qanday va qayerda qo'llashni o'rgatishga, ularni ijodiy va erkin fikrlashga undashga yo'naltirilgan.

Ikkinchi muhim tomoni, Finlyandiya fan dasturlarida o'zaro mutanosiblik juda yaxshi ta'minlangan. Masalan, biron sinfda geografiyadan Osiyo mamlakatlari o'tilsa, o'sha haftada biologiyadan ham Osiyoda o'suvchi o'simliklar, tarixdan ham Osiyo xalqlari tarixi, matematikadan ham Osiyoga oid ma'lumotlardan iborat misollar beriladi.

Uchinchi muhim jihat – o'qituvchilarning yuqori salohiyatga ega ekanligi fin ta'lismi muassasalarining muvaffaqiyatga erishishidagi navbatdagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Finlyandiyada o'qituvchilik qilish uchun kamida magistr darajasiga ega bo'lish kerak.

Finlyandiyada eng yaxshi maktab, bu turar joyiga eng yaqin joylashgan maktabdir.

Ushbu omillar Finlyandiya ta'lismi tizimini butun dunyoga mashhur qilishga va xalqaro ta'lismi reytinglarida yuqori o'rnlarni egallashga xizmat qilmoqda.

Xulosa o'mida shuni aytsak bo'ladiki, ta'lismi tizimini rivojlantirishda biz ilg'or xorijiy metodikalardan foydalanish orqali juda ko'p samaradorlikka erisha olamiz. Finlandyaning ta'lismi eng yaxshi ta'lismi tizimlaridan biri hisoblanadi ammo bu darajaga ko'tarilishi uchun juda ko'p qiyinchiliklarga duch kelgan va shu darajaga erishgan. Huddi shunday ta'limi rivojlangan davlatlardan biri bo'lishimizda albatta biz ham qiyinchiliklarga uchriymiz. Ammo bunday ta'lismi tizimlarini va ularning usullarini o'rganish orqali biz kamroq qiyinchiliklarga erishishimiz mumkun. Ammo barcha metodlarni ham to'g'ridan to'g'ri qo'llay olmaymiz. Ularni o'zimizning davlatimizga, mintalitetimizga va shart sharoitimizga mos holda qo'llashimiz kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Международный научный журнал № 5 (100), часть 1 «Научный импульс»
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/talimda-innovatsion-texnologiyalarning-turlari-va-ahamiyati>
3. https://tsuull.uz/sites/default/files/14.innovatsion_tekhnologiyalarning_talim_sohasidagi_orni.pdf